



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

**2026-YIL / AVGUST / 8-SON,
I-QISM**



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, avgust.
I-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukirimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

O'RTA DAROMADLI MAMLAKATLARDA INNOVATSION XARAJATLARNING EKSPORT DIVERSIFIKATSIYASIGA TA'SIRI	20
Karimova Xulkar Raxmanali qizi Jalg'ashova Nazira Umbet qizi	
MINTAQADA SANOAT SALOHİYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING HOZIRGI HOLATI TAHLILI	26
Mamedov Ko'palboy Masharipovich	
TA'LIM XIZMATLARINI BOSHQARISHDA XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA SIFATNI TA'MINLASH	30
Umarov Ravshanjon Gafurovich	
SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYAT SAMARADORLIGINI BAHOLASH USULLARI	36
Mamurov Doniyor Eldorovich	
MINTAQAVIY IQTISODIY RIVOJLANISHDA YASHIL INVESTITSİYALARDAN FOYDALANISH TAMOIYILLARI VA USULLARI	43
Ro'zimov Doniyor Soporboy o'g'li	
TOSHKENT METROPOLITENI SANOATIDA MAHALLIYLASHTIRISH DARAJASINING DINAMIKASI VA UNI XALQARO TAJRIBA BILAN QIYOSIY BAHOLASH	49
Mansurov Xamrokul Ilxomovich	
ЦИФРОВАЯ САМООРГАНИЗАЦИЯ БУДУЩИХ МЕНЕДЖЕРОВ КАК ФАКТОР ЭФФЕКТИВНОСТИ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ	56
Мирвосикий Хилола Хабибулла кизи	
XORAZM VILOYATIDA AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHNING ILMIY-AMALIY TAHLILI	64
Z.Sh. Matniyozova	
DEVELOPMENT MECHANISMS OF EMBEDDED FINANCE SERVICES IN COMMERCIAL BANKS OF UZBEKISTAN BASED ON OPEN BANKING	69
Khurramova Fotima Bakhodir qizi	
IMPROVING THE PRACTICE OF FINANCING INVESTMENT PROJECTS THROUGH SYNDICATED LOANS PROVIDED BY COMMERCIAL BANKS	76
Xudaynazarov Davrbek Abdullayevich	
TASHQI SAVDO DINAMIKASI VA BANK MOLİYAVIY XAVFSIZLIGI: O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARI MISOLIDA AMALIY TAHLIL	83
Babadjanov Shuxrat Atxamovich	
GREEN LENDING PRACTICED AMONG UZBEK COMMERCIAL BANKS: SURVEY- BASED ASSESSMENT OF READINESS AND CONSTRAINTS	90
Avazov Azizbek Ashurali o'g'li	
"YANGI O'ZBEKISTON – 2030" STRATEGIYASI DOIRASIDA IQTISODIY O'ZGARISHLARNING ASOSIY YO'NALISHLARI VA ULARNING SAMARADORLIGI	96
Amirov Otabek Xudoyberdi o'g'li	
BARQAROR YASHIL INVESTITSİYALARNING QAYTA TIKLANUVCHI ENERGETIKA RIVOJIGA ROLINI VA HISSASINI TAHLIL QILISH: O'ZBEKISTON MISOLIDA	101
Zilola Kazakova	
HUDUD SANOATIDA KAPITAL VA MEHNAT RESURLARI SAMARADORLIGINI KOB-B-DUGLAS MODELİ YORDAMIDA BAHOLASH	113
Turayev Baxrom Ergashevich	



“MAHALLA BANKIRI” INSTITUTI DAVLATBANK HAMKORLIGINING OPERATSION BO‘G‘INI SIFATIDA: SAMARADORLIK MEZONLARI VA OPTIMAL YUKLAMA PARAMETRLARI	120
Nurmuratov Azamat Mamarizo o‘g‘li	
SHAHAR JAMOAT TRANSPORTI YO‘NALISHLARINING AHOLI EHTIYOJLARIGA MOSLIGINI TADQIQ ETISH (URGANCH SHAHRI MISOLIDA)	127
Abdullayeva Shahzodaxon Fazliddin qizi	
O‘ZBEKISTONDA QISHLOQ XO‘JALIGINI RO‘YXATGA OLISHNING AGRAR IQTISODIY O‘SISHNI TA‘MINLASHDAGI INSTITUTSIONAL ROLI	132
Shohujayeva Zebo Safoyevna	
Xolov Javlonbek Davronovich	
УЗБЕКИСТАН КАК АКАДЕМИЧЕСКИЙ ХАБ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ	138
Эргашева Шахло Тургуновна	
БУХГАЛТЕРСКИЙ УЧЕТ КАК ИНФОРМАЦИОННАЯ ОСНОВА ФИНАНСОВОГО КОНТРОЛЯ ПРЕДПРИЯТИЯ	146
Маннапова Раъно Абборовна	
YOSHLAR TADBIRKORLIGINI MOLIVAVIY, INSTITUTSIONAL VA RAQAMLI QO‘LLABQUVVATLASHNING INTEGRATSIYALASHGAN RAQAMLI MODELLARI: “3M-PLATFORMA” VA “SMART YOUTH BUSINESS ECOSYSTEM” KONSEPSIYALARI	154
Xojiyev Ma‘murjon Muxsinjon o‘g‘li	
RAQAMLI BANK XIZMATLARINING IQTISODIY VA INSTITUTSIONAL XUSUSIYATLARI	163
Begimqulova Sevara Nurmamatovna	
KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI	169
Yusupov Muxiddin Soatovich	
Normaxmatov Fazliddin Nuriddin o‘g‘li	
OLIY TA‘LIMDA INNOVATSION MENEJMENT IMKONIYATLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH	177
Abdullayev Farhod Ozodovich	
“YASHIL MAKON” UMUMMILLIY LOYIHASINI AMALGA OSHIRISHNING TASHKILIY-AMALIY NATIJALARI	180
Jamshidbek Bobojonov	
QISHLOQ XO‘JALIGI MAHSULOTLARI EKSPORTI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA KLASSTERLARNING AHAMIYATI	184
Radjabova Mavluda Ergash qizi	
STRENGTHENING MAHALLA ENTREPRENEURSHIP THROUGH AN INTEGRATED ECOSYSTEM: FUNCTIONAL LINKAGES, DIGITAL COORDINATION, AND REGIONAL EVIDENCE	189
Zafarjon Odiljonovich Tuxtasinov	
MINTAQANI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA GENERATIV SUN‘IY INTELLEKT INFRATUZILMASINING NAZARIY ASOSLARI	195
Saidov Jaloladdin Allaberganovich	
KORXONALARDA BOSHQARUV QARORLARINI QABUL QILISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	202
Mamajonova Surayyoxon Maxmudjonovna	
PAXTA-TO‘QIMACHILIK KLASSTERLARIDA INNOVATSION RIVOJLANISHNING HUDUDIY XUSUSIYATLARINI BAHOLASH METODIKASI	207
Tojiyev Sa‘dulla Muhitdinovich	



PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASTERLARIDA INNOVATSION RIVOJLANISHNING HUDUDIIY XUSUSIYATLARINI BAHOLASH METODIKASI

Tojiyev Sa'dulla Muhitdinovich

“O‘zbekiston paxta-to‘qimachilik klasterlari”

uyushmasi raisi vazifasini bajaruvchi,

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi,

iqtisodiyot fanlari nomzodi

Annotatsiya. Paxta-to‘qimachilik klasterlarida innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarishni rag‘batlantiruvchi omillar ilmiy jihatdan baholandi. Tadqiqot doirasida institutsional qo‘llab-quvvatlash, moliyaviy rag‘batlantirish, texnologik infratuzilma, inson kapitali, qiymat zanjiri integratsiyasi hamda eksport bozori talabi o‘zaro bog‘liqlikda tahlil qilindi. Rasmiy statistik ma‘lumotlar, normativ-huquqiy hujjatlar va zamonaviy ilmiy manbalar asosida mazkur omillarning innovatsion rivojlanishga ta’siri qiyosiy yondashuv orqali asoslandi. Olingan natijalar yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, klasterlarning innovatsion salohiyatini oshirish, eksport tarkibini takomillashtirish hamda tarmoqning raqobatbardoshligini mustahkamlash imkoniyatlarini ko‘rsatdi. Taklif etilgan baholash modeli innovatsion boshqaruv qarorlarini asoslash uchun ishonchli ilmiy-metodik asos yaratdi.

Kalit so‘zlar: paxta-to‘qimachilik klasteri, innovatsion mahsulot, institutsional qo‘llab-quvvatlash, moliyaviy rag‘batlantirish, texnologik infratuzilma, inson kapitali, qiymat zanjiri, eksport, raqobatbardoshlik.

Аннотация. Проведена научная оценка факторов, стимулирующих производство инновационной продукции в хлопково-текстильных кластерах. В рамках исследования в комплексной взаимосвязи проанализированы институциональная поддержка, финансовое стимулирование, технологическая инфраструктура, человеческий капитал, интеграция цепочки создания стоимости и спрос на экспортных рынках. На основе официальных статистических данных, нормативно-правовых документов и современных научных источников с применением сравнительного подхода обосновано влияние указанных факторов на инновационное развитие. Полученные результаты подтвердили возможности расширения производства продукции с высокой добавленной стоимостью, укрепления инновационного потенциала кластеров, совершенствования структуры экспорта и повышения конкурентоспособности отрасли. Предложенная модель оценки сформировала надёжную научно-методическую основу для обоснования эффективных управленческих решений в сфере инновационного развития.

Ключевые слова: хлопково-текстильный кластер, инновационная продукция, институциональная поддержка, финансовое стимулирование, технологическая инфраструктура, человеческий капитал, цепочка создания стоимости, экспорт, конкурентоспособность.

Abstract. A scientific assessment was conducted of the factors stimulating innovative product development in cotton-textile clusters. The study comprehensively analyzed institutional support, financial incentives, technological infrastructure, human capital, value chain integration, and export market demand as interconnected drivers of innovation. Based on official statistical data, regulatory documents, and recent scientific literature, the influence of these factors on innovation-driven development was substantiated through a comparative approach. The findings demonstrated significant opportunities to expand the production of high-value-added products, strengthen the innovation capacity of cotton-textile clusters, improve the export structure, and enhance the competitiveness of the sector. The proposed assessment model provides a reliable scientific and methodological basis for substantiating innovation-oriented managerial decisions.

Keywords: cotton-textile cluster, innovative products, institutional support, financial incentives, technological infrastructure, human capital, value chain, exports, competitiveness.



KIRISH

O'zbekiston yengil sanoatining so'nggi yetti yildagi rivojlanishi xom ashyo eksportiga asoslangan modeldan yuqori qo'shilgan qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarishga yo'naltirilgan modelga o'tish bilan tavsiflanadi. 2017-yilda joriy etila boshlagan paxta-to'qimachilik klasterlari paxta yetishtirish, tola tozalash, yigiruv, to'quv hamda tikuv-trikotaj bosqichlarini yagona texnologik va tashkiliy zanjirga birlashtirdi. Ushbu integratsiya natijasida to'qimachilik mahsulotlari eksporti 2017-yildagi qariyb 6 million dollardan 2024-yilga kelib qariyb 3 milliard dollarga yetdi, davlat siyosatida esa 2028-yilga qadar ushbu ko'rsatkichni 7 milliard dollarga yetkazish vazifasi belgilandi [1].

Tarmoqning tarkibiy o'zgarishi eksport tarkibida ham yaqqol namoyon bo'lmoqda. 2024-yilda to'qimachilik mahsulotlari eksporti 2,9 milliard dollarni tashkil etib, umumiy eksportning 10,6 foiziga teng bo'ldi. Bunda paxta kalavasi 1,237 milliard dollar, tayyor to'qimachilik buyumlari 1,124 milliard dollar, trikotaj gazlamalar 292,1 million dollar hamda gazlamalar 145,9 million dollar eksport daromadini ta'minladi [2]. Yarim tayyor mahsulotlardan tayyor buyumlarga o'tish yo'nalishidagi ushbu siljish tarmoqning innovatsion salohiyati izchil mustahkamlanib borayotganini ko'rsatadi.

Klaster modelining miqdoriy kengayishi qisqa muddat ichida amalga oshdi. 2017-yilda atigi 2 ta tajriba klasteri tashkil etilgan bo'lsa, ularning soni 2018-yilda 16 taga, 2019-yilda 77 taga, 2020-yilda 97 taga, 2021-yilda 122 taga, 2022-yilda 134 taga hamda 2023-yilda 142 taga yetdi. Klasterlarning paxta ekin maydonidagi ulushi esa mos ravishda 2,2 foizdan 100 foizgacha oshdi [3]. 2017–2023-yillarda paxta ekin maydoni 18,5 foizga qisqargan bo'lishiga qaramay, paxta xom ashyosi yetishtirish hajmi 30 foizga oshdi. Mazkur natija klasterlarda joriy etilgan ilg'or agrotexnologiyalar va innovatsiyalarning samaradorligini yaqqol namoyon etadi [3].

Klasterlashuv mehnat bozoriga va qayta ishlash chuqurligiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatdi. To'qimachilik tarmog'idagi bandlik 2018-yildagi 188 ming kishidan 2024-yilda qariyb 600 ming nafarga yetdi. 2023-yildan boshlab esa xom paxtaning 100 foizi mamlakat ichida kalavaga qayta ishlanmoqda [4]. Ushbu natijalar tarmoqning qo'shilgan qiymat zanjirida yanada yuqori bosqichga ko'tarilayotganini tasdiqlaydi.

Tarmoq darajasida erishilgan natijalar hududlar kesimida bir xil taqsimlanmagan. Klasterlarning innovatsion salohiyati ular joylashgan hududlarning resurs bazasi, infratuzilmasi, malakali kadrlar bilan ta'minlanganlik darajasi hamda bozorlarga yaqinligiga bog'liq holda farqlanadi. Investitsiyalarni samarali joylashtirish, hududiy rivojlanish dasturlarini maqsadli loyihalash hamda klasterlarni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlarini tabaqalashtirish uchun ularning innovatsion rivojlanishini hududiy kesimda baholash imkonini beruvchi ishonchli metodik vosita zarur. Mamlakat miqyosida qo'llanilayotgan innovatsion indekslar hududlar o'rtasidagi tafovutlarni to'liq aks ettirmaydi. Shu bois, amaliy ehtiyojdan kelib chiqib, tadqiqotning maqsadi paxta-to'qimachilik klasterlarida innovatsion rivojlanishning hududiy xususiyatlarini baholashga qaratilgan ko'p blokli metodikani ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Klaster yondashuvining nazariy asoslari Maykl Porter ishlarida shakllangan. Porter klasterlarni o'zaro bog'liq korxonalar, ixtisoslashgan ta'minotchilar, xizmat ko'rsatuvchilar va aloqador institutlarning muayyan sohadagi geografik to'planishi sifatida ta'riflaydi hamda ularning raqobatbardoshlikka uch yo'nalishda — korxonalar unumdorligini oshirish, innovatsiyalar sur'atini tezlashtirish va yangi biznes tuzilmalarini shakllantirish orqali — ta'sir etishini ko'rsatadi [5]. Geografik, madaniy va institutsional yaqinlik bilimlarning tarqalishini kuchaytirib, korxonalarni uzluksiz innovatsion rivojlanishga undaydi [6].

Hududiy innovatsion tizimlar va klasterlar samaradorligini baholashning indikatorli yondashuvlari ushbu nazariy negizni amaliy o'lchov vositalariga aylantirdi. Hududiy innovatsion klasterlar samaradorligini o'lchashga bag'ishlangan tadqiqotlarda kontent-tahlil, korrelyatsion-regression tahlil hamda ekonometrik modellashtirish usullari uyg'unlashtirilib, innovatsiya, biznes va ta'lim rivojlanishi ko'rsatkichlari orqali baholash amalga oshiriladi [7]. Perm viloyati misolida ishlab chiqilgan metodikada hududiy innovatsion tizim besh guruhga birlashtirilgan 33 ta xususiy ko'rsatkich orqali baholanadi. Bular: bilim yaratish sharoitlari, bilimlarni tarqatish va qo'llash, hududning klaster salohiyati, jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuv hamda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdan iborat [8].


Chexiya NUTS3 hududlari uchun taklif etilgan IRIS indeksida ko'rsatkichlar besh omilga — bilim, biznes, intellektual mulk, siyosiy qo'llab-quvvatlash va natijalarga — guruhlanadi. Standartlashtirish va qayta masshtablashdan so'ng integral indeks hisoblanadi, hududlar esa klaster tahlili yordamida toifalarga ajratiladi [9]. Yevropa Ittifoqining Mintaqaviy innovatsion natijalar jadvali metodologiyasi kompozit hududiy innovatsion indeksni shakllantirish va ko'rsatkichlarni normallashtirish tartibini batafsil bayon etadi [10]. Sanoat klasterlarining innovatsion salohiyatini baholashda iyerarxik tahlil usuli hamda omilli tahlilning birgalikda qo'llanilishi ko'rsatkichlar tizimini asoslash va vazn koeffitsiyentlarini belgilashda samarali ekanligi isbotlangan [11].



Sanab o'tilgan yondashuvlar hududiy innovatsion tizimni umumiy holatda baholashga qaratilgan. Biroq ularning aksariyati ko'p tarmoqli iqtisodiyot uchun ishlab chiqilgan bo'lib, yagona qiymat zanjiriga asoslangan hamda agrosanoat integratsiyasi yuqori bo'lgan paxta-to'qimachilik klasterlarining o'ziga xos xususiyatlarini to'liq hisobga olmaydi. Transformatsion iqtisodiyot sharoitida faoliyat yuritayotgan bunday klasterlar uchun tarmoqning texnologik bosqichlari va hududiy resurs salohiyatini o'zaro uyg'unlashtirgan maxsus baholash metodikasiga ehtiyoj saqlanib qolmoqda. Keyingi bo'lim aynan ushbu ilmiy-amaliy ehtiyojni qondirishga qaratilgan metodik yondashuvni bayon etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Taklif etilayotgan metodika paxta-to'qimachilik klasterini yagona qiymat zanjiri sifatida talqin qiladi va uning innovatsion rivojlanishini ko'p blokli integral indeks orqali baholashga asoslanadi. Baholash mantig'i to'rt funksional blokni qamrab oladi: resurs (kirish) bloki, jarayon bloki, natija bloki hamda institutsional blok. Har bir blok klasterning innovatsion faoliyatidagi muayyan bosqichni aks ettiradi va xususiy ko'rsatkichlar majmui bilan tavsiflanadi (1-rasm).



1-rasm. Paxta-to'qimachilik klasterlarida innovatsion rivojlanishni baholash metodikasining konseptual sxemasi¹

Resurslar bloki ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlariga yo'naltirilgan xarajatlar ulushi, zamonaviy uskunalar bilan jihozlanganlik darajasi, malakali kadrlar ulushi hamda tomchilatib sug'orish va mexanizatsiyalashgan terim kabi agroteknologiyalarni joriy etish ko'rsatkichlarini o'z ichiga oladi. Jarayonlar bloki qayta ishlash chuqurligi (kalava — gazlama — tayyor buyum), texnologiyalarni yangilash sur'ati hamda raqamlashtirish darajasini tavsiflaydi. Natijalar bloki birlik mahsulotga to'g'ri keladigan qo'shilgan qiymat, eksport tarkibida tayyor mahsulotlar ulushi, mehnat unumdorligi hamda yangi mahsulotlar salmog'ini qamrab oladi. Institutsional blok esa infratuzilmaning rivojlanganligi, moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyati, ilmiy muassasalar bilan hamkorlik darajasi hamda sifat va ekologik sertifikatlashtirish ko'rsatkichlarini hisobga oladi.

Metodika besh bosqichda amalga oshiriladi. Birinchi bosqichda har bir blok bo'yicha ko'rsatkichlar tanlanadi va ularning miqdoriy qiymatlari shakllantiriladi. Ikkinchi bosqichda turli o'lchov birliklarida ifodalangan ko'rsatkichlar minimal-maksimal normallashtirish usuli yordamida yagona shkalaga keltiriladi.

Bu yerda i -hudud bo'yicha j -ko'rsatkichning normallashtirilgan qiymati, ko'rsatkichning dastlabki qiymati, mos ravishda ushbu ko'rsatkichning eng kichik va eng katta qiymatlarini ifodalaydi.

Uchinchi bosqichda ekspert baholash yoki analitik iyerarxiya usuli yordamida ko'rsatkichlarning vazn koeffitsiyentlari aniqlanadi. To'rtinchi bosqichda bloklar hamda umumiy integral indeks vaznlangan yig'indi asosida hisoblanadi.

Bu yerda hududning integral innovatsion rivojlanish indeksini ifodalaydi.

¹ Muallif ishlanmasi



Beshinchi bosqichda hududlar integral indeks qiymatlariga ko'ra klaster tahlili yordamida innovatsion yetuklikning yuqori, o'rta va past darajalariga ajratiladi. Mazkur ketma-ketlik Perm viloyati [8], Chexiya hududlari [9] hamda Yevropa Ittifoqida [10] qo'llanilgan metodologik yondashuvlarga mos keladi va uni tarmoq xususiyatlariga moslashtirish imkonini beradi.

Hisob-kitoblarchun zarur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi statistika organlari, «O'zto'qimachilik sanoat» uyushmasining rasmiy hisobotlari hamda milliy innovatsion muhitni baholashda Butunjahon intellektual mulk tashkiloti tomonidan e'lon qilinadigan Global innovatsion indeks ma'lumotlari asosida olindi. Ko'rsatkichlar tizimi va vazn koeffitsiyentlarini shakllantirish tartibining umumlashtirilgan tavsifi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Innovatsion rivojlanishni hududiy baholash uchun ko'rsatkichlar tizimi²

Funksional blok	Asosiy ko'rsatkichlar	Baholash usuli va asosi
Resurs (kirish) bloki	ITTKlga yo'naltirilgan xarajatlar ulushi; zamonaviy uskunalar bilan jihozlanganlik; malakali kadrlar salmog'i; tomchilatib sug'orish va mexanizatsiyalashgan terim qamrovi	Minimal-maksimal normallashtirish (1-formula); baholash asosi [8] va [11]
Jarayon bloki	Qayta ishlash chuqurligi (kalava — gazlama — tayyor buyum); texnologiyalarni yangilash sur'ati; ishlab chiqarishni raqamlashtirish darajasi	Vaznlangan yig'indi; baholash asosi [9] va [10]
Natija bloki	Birlik mahsulotga to'g'ri keladigan qo'shilgan qiymat; eksportda tayyor mahsulot ulushi; mehnat unumdorligi; yangi mahsulotlar salmog'i	Integral indeks (2-formula); baholash asosi [7] va [10]
Institutsional blok	Infratuzilma bilan ta'minlanganlik; moliyaviy resurslarga kirish; ilmiy muassasalar bilan hamkorlik; sifat va ekologik sertifikatlashtirish (BCI, organik)	Ekspert baholash/ierarxik tahlil (AHP) asosida vaznlash; baholash asosi [5] va [11]

TAHLIL VA NATIJALAR

Taklif etilgan metodikani O'zbekiston paxta-to'qimachilik klasterlari rivojlanishiga tatbiq etish tarmoqning innovatsion o'sish bosqichlarini izchil yoritib beradi. Klasterlarning miqdoriy dinamikasi, paxta ekin maydonidagi ulushi hamda milliy innovatsion ko'rsatkichlar 2-jadvalda umumlashtirilgan.

2-jadval

Paxta-to'qimachilik klasterlari rivojlanishi va milliy innovatsion o'rin dinamikasi (2017–2023)³

Yil	Klasterlar soni	Paxta ekin maydonidagi ulushi, %	Milliy GII o'rni
2017	2	2,2	—
2018	16	15,1	—
2019	77	59,0	—
2020	97	85,4	93
2021	122	100	86
2022	134	100	82
2023	142	100	82

Keltirilgan ma'lumotlar resurs va jarayon bloklari bo'yicha jadal rivojlanishni tasdiqlaydi. Klasterlar 2021-yilga kelib paxta ekin maydonining to'liq qamrovini ta'minladi. Innovatsion agrotexnologiyalarning keng joriy etilishi hisobiga esa ekin maydoni qisqargan bo'lishiga qaramay, hosildorlikni oshirishga erishildi [3]. 2020-yilda 96 ta klaster 906 313 gektar maydonda, ya'ni mamlakatdagi paxta maydonining 87,7 foizida faoliyat yuritgani resurs bazasining hududiy konsentratsiyasini yaqqol namoyon etadi [14].

Natija bloki ko'rsatkichlari qiymat zanjirining chuqurlashganini aks ettiradi. Eksport tarkibida kalava ulushi 2005–2015-yillardagi o'rtaicha 64 foizdan 2018-yilga kelib 47 foizga kamaydi, bu esa yarim tayyor mahsulotlardan yuqori qo'shilgan qiymatli tayyor buyumlarga o'tishni anglatadi [15]. 2024-yildagi 2,9 milliard dollarlik eksport tarkibida tayyor to'qimachilik buyumlari 1,124 milliard dollarni tashkil etib, kalava eksporti hajmiga deyarli

² Manba: hududiy innovatsion tizimlarni baholash bo'yicha [5], [7], [8], [9], [10] va [11] metodologiyalari asosida tuzilgan.

³ Manba: klaster ko'rsatkichlari [3]; Global innovatsion indeks o'rinlari [12] va [13] asosida.



tenglashdi [2]. Qayta ishlash chuqurligining ortishi jarayon va natija bloklari o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni yaqqol namoyon etadi.

Milliy innovatsion kontekst metodikaning natija blokiga alohida e'tibor qaratish zarurligini asoslaydi. O'zbekiston Global innovatsion indeksda 2024-yilda 133 ta iqtisodiyot orasida 83-o'rinni egalladi. Bunda innovatsion kirishlar bo'yicha 71-o'rin, innovatsion natijalar bo'yicha esa 91-o'rin qayd etildi [12]. 2025-yilda mamlakat 139 ta iqtisodiyot orasida 79-o'ringa ko'tarildi, biroq innovatsion kirishlar (69-o'rin) innovatsion natijalarga (92-o'rin) nisbatan yuqoriroq darajada saqlanib qoldi [13]. Kirish va natija ko'rsatkichlari o'rtasidagi ushbu tafovut baholash metodikasida natija blokining vazniga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiqligini ko'rsatadi.

Metodikaning hududiy qo'llanilishi klasterlarni innovatsion yetuklik darajasi bo'yicha uch toifaga ajratish imkonini beradi. Yuqori daraja qayta ishlash zanjiri to'liq shakllangan, eksport tarkibida tayyor mahsulotlar ulushi yuqori hamda ilmiy hamkorlik rivojlangan hududlarni qamrab oladi. O'rta daraja resurs bazasi kuchli, biroq qayta ishlashning yuqori bosqichlari hali to'liq shakllanmagan hududlarga xosdir. Past daraja esa, asosan, xom ashyo yetishtirish va dastlabki qayta ishlashga ixtisoslashgan hududlarni o'z ichiga oladi. Bunday tabaqalanish hududlarning tabiiy resurs negizi, infratuzilmasi hamda kadrlar salohiyatidagi tafovutlar bilan izohlanadi [15]. Toifalashtirish natijalari investitsiya oqimlarini maqsadli yo'naltirish va qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlarini hududlarning o'ziga xos xususiyatlariga moslashtirish uchun mustahkam asos bo'lib xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston paxta-to'qimachilik klasterlari modeli qisqa muddat ichida tarmoqning tarkibiy o'zgarishini ta'minladi hamda xom ashyo eksportidan tayyor mahsulot ishlab chiqarishga o'tish jarayonini jadallashtirdi. Ishlab chiqilgan to'rt blokli integral metodika klasterlarning innovatsion rivojlanishini hududlar kesimida qiyoslash va ularni innovatsion yetuklik darajasi bo'yicha tabaqalashtirish imkonini beradi. Metodikaning amaliy ahamiyati uning rasmiy statistik ma'lumotlarga tayanishi va boshqaruv qarorlarini ilmiy asoslashga xizmat qilishida namoyon bo'ladi. Quyidagi takliflar metodikaning amaliyotga samarali tatbiq etilishini ta'minlashga xizmat qiladi:

1. Statistika organlari hamda «O'zto'qimachilik sanoat» uyushmasi tomonidan klasterlarning innovatsion rivojlanishini muntazam hududiy monitoring qilishni taklif etilgan ko'rsatkichlar tizimi asosida institutsionalashtirish.
2. Milliy innovatsion kirish va natija ko'rsatkichlari o'rtasidagi tafovutni hisobga olgan holda integral indeksda natija blokining vaznini oshirish [12].
3. Innovatsion yetuklik darajasi past hududlarda moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, uskunalarini yangilash hamda tomchilatib sug'orish va mexanizatsiyalashni qo'llab-quvvatlash.
4. Klasterlarning ilmiy muassasalar bilan hamkorligini kuchaytirish hamda xalqaro sifat va ekologik sertifikatlashtirishni (BCI, organik paxta) kengaytirish orqali qiymat zanjirining yuqori bosqichlariga o'tishni rag'batlantirish.
5. Hududiy toifalashtirish natijalaridan investitsiyalarni maqsadli joylashtirish va tabaqalashtirilgan rag'batlantirish mexanizmlarini loyihalashda foydalanish.

Eksport hajmini 2028-yilga qadar 7 milliard dollarga yetkazish vazifasi hamda qiymat zanjirining izchil chuqurlashuvi sharoitida ma'lumotlarga asoslangan hududiy baholash metodikasi muvozanatli va innovatsiyaga yo'naltirilgan rivojlanishni qo'llab-quvvatlovchi ishonchli vosita bo'lib xizmat qiladi [1].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. United States Department of Agriculture, Foreign Agricultural Service. *Cotton and Products Update – Uzbekistan* [Elektron resurs]. – 2024. – URL: https://apps.fas.usda.gov/newgainapi/api/Report/DownloadReportByFileName?fileName=Cotton+and+Products+Update_Tashkent_Uzbekistan+-+Republic+of_UZ2024-0003.pdf
2. Fibre2Fashion. *2024 Uzbek textile sector export worth \$2.9 bn; 10.6% of total exports* [Elektron resurs]. – 2025. – URL: <https://www.fibre2fashion.com/news/textile-news/2024-uzbek-textile-sector-export-worth-2-9-bn-10-6-of-total-exports-301243-newsdetails.htm>
3. O'zbekiston Respublikasi Elchixonasi. *O'zbekiston qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va eksport qilish bo'yicha jahon yetakchilaridan biriga aylanishga intilmoqda* [Elektron resurs]. – URL: <https://www.uzbekistan.org.ua/uz/yangiliklar/7285-o%E2%80%98uzbekiston-qishloq-xo%E2%80%98jaligi-mahsulotlarini-yetishtirish-va-eksport-qilish-bo%E2%80%98yicha-jahon-yetakchilaridan-biriga-aylanishga-intilmoqda.html>



4. World Bank. *Weaving a New Future in Uzbekistan's Cotton Sector* [Elektron resurs]. – 2025. – URL: <https://www.worldbank.org/en/news/feature/2025/05/27/weaving-a-new-future-in-uzbekistan-s-cotton-sector>
5. Porter M. E. *Clusters and the New Economics of Competition* // *Harvard Business Review* [Elektron resurs]. – URL: https://biblioteca.fundacionicbc.edu.ar/images/d/de/Clusters_1.pdf
6. Porter M. E. *Location, Competition, and Economic Development: Local Clusters in a Global Economy* // *Economic Development Quarterly* [Elektron resurs]. – URL: https://economie.ens.psl.eu/IMG/pdf/porter_2000_-_location_competition_and_economic_development.pdf
7. *Indicators of Regional Innovation Clusters' Effectiveness in the Higher Education System* [Elektron resurs]. – ResearchGate, 2020. – URL: <https://www.researchgate.net/publication/344725528>
8. *Indicator Evaluation of Perm Region Innovation System According to the Cluster Approach* [Elektron resurs]. – URL: <https://ukdiss.com/examples/indicator-evaluation-of-perm-region-innovation-system.php>
9. *Assessment of Regional Innovation Systems (IRIS)* // *Transylvanian Review of Administrative Sciences* [Elektron resurs]. – URL: <https://rtsa.ro/tras/index.php/tras/article/viewFile/500/489>
10. European Commission. *Regional Innovation Scoreboard 2025: Methodology Report* [Elektron resurs]. – 2025. – URL: https://research-and-innovation.ec.europa.eu/document/download/f6019e31-2927-4802-ae56-5f2fd92cb6c3_en
11. *Evaluation of Regional Industrial Cluster Innovation Capability Based on Particle Swarm Clustering Algorithm and Multi-Objective Optimization* // *Complex & Intelligent Systems*. – Springer, 2021 [Elektron resurs]. – URL: <https://link.springer.com/article/10.1007/s40747-021-00521-8>
12. World Intellectual Property Organization (WIPO). *Global Innovation Index 2024: Uzbekistan* [Elektron resurs]. – 2024. – URL: <https://www.wipo.int/edocs/gii-ranking/2024/uz.pdf>
13. World Intellectual Property Organization (WIPO). *Global Innovation Index 2025: Uzbekistan* [Elektron resurs]. – 2025. – URL: <https://www.wipo.int/edocs/gii-ranking/2025/uz.pdf>
14. «O'zto'qimachilik sanoat» uyushmasi. *Paxta-to'qimachilik klasterlari* [Elektron resurs]. – URL: <https://uzts.uz/uzb/paxta-to-qimachilik-klasterlari/>
15. World Bank. *Cotton-Textile Clusters in Uzbekistan: Status and Outlook* [Elektron resurs]. – 2020. – URL: <https://documents1.worldbank.org/curated/en/305731601271791257/pdf/Policy-Dialogue-on-Agriculture-Modernization-in-Uzbekistan-Cotton-Textile-Clusters-in-Uzbekistan-Status-and-Outlook.pdf>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 8/1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>